

## “YER VA UNING KOINOTDAGI QO’SHNILARI”

*Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 98-umumiy  
 o’rta ta’lim mактабининг boshlang’ich sinf o’qituvchisi  
**Halilova Ra’no***

### Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metodi	Vaqti
<b>I.Tashkiliy qism.</b>	Salomlashish.O’quvchilar davomatini aniqlash.Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Dars davomida rioya qilinishi lozim bo’lgan qoidalar belgilanadi.Sinf guruhlarga bo’linadi. “Quyosh”, “Yer”, “Oy” guruhlari. Bugungi dars “Samoga sayohat”metodi orqali olib boriladi.	Suhbat	<b>5 daqiqa</b>
<b>II.Uyga vazifani so’rash.</b>	O’tilgan mavzu so’raladi.”Sehrli tong” metodi orqali o’tilgan mavzu mustahkamlanadi.	Savol-javob asosida	<b>10 daqiqa</b>
<b>III.Yangi mavzu bayoni.</b>	Yangi mavzu tushuntiriladi.Slaydlar Xarita va videorolik namoyish etiladi. “O’rnini top” metodi orqali yangi mavzu yoritiladi.	Tushuntirish	<b>18 daqiqa</b>
<b>IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.</b>	“O’rnini top?” metodi orqali yangi mavzu mustahkamlanadi.	Izlanish Muammoli vaziyat	<b>7 daqiqa</b>
<b>V. Baholash.</b>	Guruhlarning ballari hisoblanadi.O’quvchilarning darsdagi ishtiroki hisobga olinib rag’batlantiriladi.		<b>2 daqiqa</b>
<b>VI.Uyga vazifa.</b>	Uyga vazifa tushuntiriladi.		<b>3 daqiqa</b>

### Darsning texnologik xaritasi

<i>“Yer va uning koinotdagi qo’shnilar” mavzusi</i>	
Mavzuga oid tushunchalar	Koinot, samo, Quyosh sistemasi, sayyoralar, yulduzlar,sayyoralar yo’ldoshi
Mavzuga ajratilgan vaqt	45 daqiqa

Dars turi	Yangi bilim beruvchi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars
Metodi	O'quvchilarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanish, "Samoga sayohat", "Sehrli tong", "O'rmini top", "Kim zukko?" metodlari
Jihozlari	2-sinf tabiiy fan darsligi, ko'rgazma va tarqatma materiallar, rasmi plakatlar, mavzu asosida tayyorlangan slaydlar
Nazorat usuli	Og'zaki va yozma, savol-javob, jamoada o'z-o'zini nazorat qilish
Baholash	O'quvchilar 5 ballik tizimda baholanadi

### **Darsning maqsadi:**

<b>Ta'limiylar maqsad:</b>	O'quvchilarga "Quyosh sistemasi" haqida bilim berish, yulduzlar va sayyoralar haqidagi bilimlarini kengaytirish
<b>Tarbiyaviy maqsad:</b>	Tabiatni asrashga , uni muhofaza qilishga o'rgatish, o'quvchilarda mustaqil Vatanimiz bilan faxrlanish va milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otish, o'zaro bir-birini hurmat qilish, o'zgalar fikriga munosabatini bildira olish, o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga, erkin va mantiqiy fikrlashga o'rgatish
<b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b>	Tabiatni kuzatish asosida tabiat hodisalariga qiziquvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarning fikrlash malakalarini va og'zaki nutqlarini o'stirish
<b>Shakllantiriladigan kompetensiya:</b>	O'z-o'zini rivojlantirish, so'roq berish va o'z fikrini erkin va mustaqil ayta olish, jamoada o'z mahoratini ko'rsata olish, vatanparvarlik hissini rivojlantirish

**Annotatsiya:** Ushbu dars ishlanmada Yer va uning koinotdagi qo'shnilar mavzusida ma'lumotlar keltirilgan. Barcha boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslari davomida foydalanishlari mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Oy, yer, quyosh, Sehrli tong, Quyosh sistemasi, plakatlar, Vatanparvarlik va hokazo...

### **I.Tashkiliy qism. Salomlashish.**

-Assalomu alaykum.

Salom mening aziz o'quvchilarim,

Ko'zlari munchoqdek boquvchilarim.

Hamma sog'mi-omonmi,

Darsga hamma tayyormi?

-Bizlar sog'miz-omonmiz,

Darsingizga tayyormiz.

-Bugun kimlar navbatchi,

Darsda menga ko'makchi?

-Bugun bizlar navbatchi,

Darsingizga ko'makchi.

### **-Juda yaxshi. Hozir darsimiz TABIIY FAN.**

Bizning shior:

Tabiatjon, sen onamiz,

Atrofingda parvonamiz.

Tabiatni o'g'il-qizlar,

Asragaymiz doim bizlar.

-Bugungi sanani navbatchilar aytsinchi?

-O'lkamizda qaysi fasl hukm surmoqda?

-Bahor oylarini sanab bering.

-Bahor faslida qanday bayramlarni nishonlaymiz?

-Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

-Ofarin, bolajonlar. Biz sizlar bilan darsimizni boshlashdan oldin guruhlarga bo'lib olamiz. "Oy", "Yer" va "Quyosh" guruhlari. Har bir guruh o'zlariga ta'rif berishadi.

### **OY GURUHI**

Tunda osmon yoritgan

Men Yer yo'ldoshi- Oyman.

Uch xilda mening shaklim,

To'lin, yarim, hilolman.



### **YER GURUHI**

Quyoshdan uzoqlikda

Uchinchida turaman.

Faqat menda hayot bor,

Shundan yashnab turaman.



### **QUYOSH GURUHI**

Quyosh sistemasida

Men markazda turaman.

Sakkizta sayyorani

## **II.Uyga vazifani so'rash.**

-Aziz bolajonlar, tabiiy fandan o'tgan darsimizda “Materiklar bo'y lab sayohat” mavzusini o'tgan edik. Sizlarning mavzuni qay darajada tushunganliklariningizni tekshirish uchun Materiklar tilga kirsin.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Sehrli tong” metodidan foydalanamiz.

O'quvchilar Quyoshimizni to'sib turgan bulutchlarda yashiringan savollarga to'g'ri javob topib Sehrli tongimizni ottirishadi.

Har bir guruhdan beshtadan o'quvchilar chiqadi.

Har bir to'g'ri javob uchun 5 balli baho sistemasida baholanadi.

## **III.Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu tushuntiriladi.Slaydlar Xarita va videorolik namoyish etiladi.

Yer sayyorasini

qo'shni sayyoralar bilan

birgalikda Quyosh

tizimida joylashgan.

Quyosh tizimi deb

atalishiga sabab, uning

markazida Quyosh,

ya'ni sariq Yulduz-

issiqlik va

yorug'likning eng muhim manbayi joylashgan.

Quyosh atrofida 8 ta sayyora aylanadi: eng yaqini Merkuriy, keyin Venera, Yer, Mars, Jupiter, Saturn, Uran, Neptun.

Merkuriy, Venera, Yer va Mars bitta guruhni tashkil qiladi, chunki ular ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash. Masalan, ularning barchasi qattiq sirtga ega. Qolgan tortta sayyora: Jupiter, Saturn, Uran, Neptun gaz gigantlari deb ataladi. Gazli sayyoralar Yer

**Janubiy Amerika** – Shimoliy Amerikaning janubidagi materik. U Amazon yomg'irli ormonlari va And tog'lariда o'suvchi o'simliklari bilan mashhur. U yerda Braziliya, Argentina va Chili va yana ko'plab boshqa davlatlarni topish mumkin.

**Avstraliya** – bu bir vaqtning o'zida ham materik, ham davlatdir. Avstraliya Osiyorning janubida joylashgan bo'lib, u o'zining noyob flora va faunasi, jumladan, kenguru va koalalari bilan mashhur.

**Antarktida** – bu Yerning janubiy qutbida joylashgan materik. U butunlay muz bilan qoplangan bo'lib, materikda qattiq sovuq hukmronlik qiladi.

guruhidagi sayyoralardan shunisi bilan farq qiladiki, ularning tarkibi, asosan gazlardan iborat bo'lib, qattiq sirtga ega emas.

**Afrika** juda katta materik bo'lib, u o'zining xilma-xil tabiatli va hayvonot dunyosi bilan mashhur. Bu materikda jirafalar va fillar yashaydigan savannalarni, shuningdek, **Saxara** kabi yirik cho'llarni uchratish mumkin.

**Yevrosiyo** – Yer yuzidagi eng katta materik. U dunyoning Yevropa va Osiyo qismlarini o'z ichiga oladi. Yevropa Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan. Yevropada Fransiya, Germaniya, Italiya kabi boy tarixga ega ko'plab davlatlar mavjud. Yevropaning eng katta daryosi – Dunay materikni shimoldan janubga kesib o'tadi. Osiyoda Xitoy, Hindiston va Yaponiya kabi davlatlar joylashgan. Eng baland tog' tizimi **Himoloy** ham Osiyoning markazida joylashgan. U eng baland **Everest** cho'qqisi bilan dunyoga mashhur.

**Shimoliy Amerika** materigi AQSH va Kanada kabi yirik davlatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, u yerdan Meksika va boshqa ko'plab davlatlarni ham topish mumkin. Bu materik o'zining xilma-xil landshaftlari, jumladan, **Katta Kanyoni** bilan mashhur.

#### IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

“O'rnini top” metodi orqali yangi mavzu yoritiladi.

Bunda Quyosh sistemasidagi sayyoralarning joylashuv tartibini ko'rsatish.

Quyoshga eng yaqin va eng uzoq sayyorani topish. Eng kata va eng kichik sayyoralarni topish.

#### V.Baholash.

Guruhlarning ballari hisoblanadi.O'quvchilarning darsdagi ishtiroki hisobga olinib rag'batlantiriladi.





### **VI.Uyga vazifa.**

**Quyosh sistemasidagi sayyoralarini joylashuvini o'qib o'rghanib kelish.**